

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O‘ZBEKISTON TILSHUNOSLIGIDA
LINGVOKULTUROLOGIYA, PRAGMALINGVISTIKA,
NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA LINGVOFOLKLORISTIKA
SOHALARINING DOLZARB MUAMMOLARI”**

(Filologiya fanlari doktori, professor R.R. Boboqalonov tavalludining 65 yilligiga bag' ishlanadi)

**XALQARO ILMIIY-NAZARIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**

©Buxoro davlat universiteti
©Fransuz filologiyasi kafedrası

Buxoro-2024

<i>Akramov B. & Abdurahimova M.</i> Fransuz tilshunosli tijorat terminoleksiyasi strukturaviy-semantik mohiyati.....	679
<i>Akramov B.Q. & Raxmatov M.F.</i> Fransuz tilidagi tijorat terminologiyasining etimologik xususiyatlari.....	682
<i>Alimova M.</i> Contrastive analysis as the systematic study of non-related languages.....	686
<i>Bobokalonov O.O., Tilavov D.Y. & Temirov S.T.</i> Défis et stratégies des locutions françaises et leur traduction d'après l'ouvrage de Pierre Guiraud.....	691
<i>Bobokalonov O.O., Bozorova D.Sh. & Jumayeva Sh.S.</i> Didactique de l'enseignement des phytonymes dans différentes cultures.....	699
<i>Bobokalonov R.O.</i> Analyse lexico-sémantique des termes médicaux en français	712
<i>Farkhodova M.Y.</i> Cognitive analysis of the concept indefiniteness in the English and Uzbek languages.....	717
<i>Gofurova S. & Mambetagiya A.</i> Increasing students' intercultural communication competence through English..	722
<i>Hojiyeva G.S. & Izzatulloeva Z.K.</i> Xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy metodlar va interfaol o'yinlar roli....	727
<i>Hojiyeva G.S. & Xamdamov T.D.</i> Frazeologik birliklar Gi de Mopassan asarlari tarjimasida tadqiqi misolida.....	732
<i>Joo Deok & Bobokalonov O.O.</i> Rôle des langues étrangères en Ouzbékistan, notamment pour le développement du tourisme à Boukhara.....	737
<i>Jo'rayeva M.M. & Karimova S.B.</i> Xorijiy tillarni o'rgatishda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari.....	745
<i>Jo'rayeva M.M. & Abdullayeva S.I.</i> Fransuz gazeta sarlavhalarida leksik birliklar tarkibi va xususiyatlari.....	751
<i>Jumadullayeva G.F.</i> The role of educational cluster in teaching English.....	756
<i>Khabiroya Z.A.</i> Conducting ESP course through gamification.....	763
<i>Mamadjonov V.A.</i> La prise en compte des exigences de compétence européennes générales dans l'enseignement des langues étrangères.....	770
<i>Mbede Ambassa L.B.</i> Les nouvelles tendances méthodologiques dans l'enseignement des langues étrangères.....	774
<i>Messi T.J.</i> Développement des compétences langagières orales des apprenants ouzbeks: entre la compréhension et l'expression orales, cas spécifique de l'AFT.....	792
<i>Nasimova F.S. & Haydarova N.J.</i> Milliy oshxona tushunchasi nazariy jihatdan.....	792
<i>Nematullaeva M.R.</i> Importance of Virtual Reality in English language teaching.....	806
<i>Nuritdinova N. & Qalandarova R.</i> Chet tillarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish....	810
<i>Radjabov R.R.</i> Simplification de l'orthographe française.....	814
<i>Radjabov R. & Ismatova G.</i> Fransuz badiiy asarlari o'zbek tili tarjimalarida evfemizmlar ifodalanishi.....	819
<i>Quziyev S.I.</i> Turizm talabalari uchun xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy shakllari.....	824
<i>Tairova M. & Toshtonboeva M.</i> «Portfolio de langues» lors de l'enseignement d'une langue étrangère.....	827
<i>Teshaeva D.</i> Enhancing CALL for EAP (English for Academic Purposes) and ESP Students.....	832
<i>To'yboeva Sh.R.</i> Tarjima strategiyalarini o'rganish muammolari.....	835
<i>Xayatova N.I.</i> Fransuz tilini o'qitishda disleksiya va disgrafyaning o'rni.....	840
<i>Shokirova M.N.</i> Dynamique des habitudes linguistiques: comprendre la langue et l'écriture comme un art.....	844



FRAZEOLIGIK BIRLIKLAR GI DE MOPASSAN ASARLARI TARJIMASI TADQIQI MISOLIDA



 Bukhara, Uzbekistan



Hojiyeva Gulchehra Salimovna

f.f.f.d. (PhD), dotsent

Fransuz filologiyasi kafedrası

Buxoro davlat universiteti

✉ g.s.hojiyeva@buxdu.uz

 <https://orcid.org/0000-0001-8686-7614>

 <https://scholar.google.com/citations?hl=fr&user=LFhC4PMAAAAJ>



Xamdamov Temur Doniyor o'g'li

Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz)

ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Fransuz filologiyasi kafedrası

Xorijiy tillar fakulteti

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuz tilida frazeologiyaning tilshunoslikda tutgan o'rnini, bu sohada ilmiy tadqiqotlar, frazeologik birliklarning sematik va sintaktik tuzilishiga ko'ra turlari ularning o'zbek tilidagi tarjimalari asosida o'xshash va farqli jihatlariga ko'ra qiyosiy-chog'ishtirma tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologizm, ibora, frazeologik birlik, sintetik guruh, oraliq guruh, analitik guruh.

Аннотация: В данной статье сравниваются и анализируются роль фразеологии французского языка в лингвистике, научные исследования в этой области, типы фразеологизмов по их семантической и синтаксической структуре, на основе их переводов на узбекский язык по признаку их сходства и различия.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, словосочетание, фразеологическая единица, синтетическая группа, промежуточная группа, аналитическая группа.

Abstract: In this article, the role of phraseology in French language in linguistics, scientific research in this field, the types of phraseological units according to their semantic and syntactic structure, based on their translations in Uzbek language, are compared and analyzed according to their similarities and differences.

Key words: Phraseology, phraseologism, phrase, phraseological unit, Synthetic group, Intermediate group, analytical group.

Kirish

Ma'lumki, iboralar – o'zida emotsional-ekspressivlikni aks ettiradigan, ko'chma ma'noga ega til birliklari bo'lib, ular fikrni betakror ifoda etish va har bir tilning so'z boyligini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega. Tilshunoslikda ularni *frazeologizmlar* yoki *frazeologik birliklar* deb ham ataladi.

Frazeologik birliklar (bundan keyin - FB)ning o'rganilish darajasi rivojlanishi bilan birgalikda uning turli guruh va bo'limlarga bo'linishi kuzatilmoqda. Ushbu guruh va bo'limlar frazeologik birliklar ifodalanishi va tuzilishining turli xususiyatlariga qarab ajratiladi. Tilshunoslikda frazeologiya qatlami leksikologiyaning kichik bir bo'limi sanalib kelinardi. Keyingi yillarda uning ustida olib borilgan ko'plab ilmiy izlanishlar va ulardagi turli yangilik jihatlari frazeologiya tilshunoslikning katta bir qismi deb qaralishiga olib keldi. Chunki uning tilda miqdori jihatidan ham, ma'nodorligi jihatidan ham juda keng ekanligi e'tiborga molikdir [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Frazeologiyaning tilshunoslikda o'rganilish ko'lami kengayib borgan sari unga butun dunyo tilshunoslarining qiziqishi ortib bordi.

Fransuz frazeologiyasida Sharl Balli soha asoschisi sifatida fanga ma'lum. Ammo bu soha lingvistika nuqtai nazaridan o'qitilar ekan, ta'kidlash kerakki, shu kunga qadar frazeologiya va FBlar xususida tilshunos olimlar juda ko'p izlanishlar olib borganlar hamda ularning bu boradagi fikrlari turli-tumandir. Ba'zi fransuz olimlari FBni “locution” deya nomlasalar, ba'zilar “locution figé”, boshqa bir guruh olimlar esa “idiome” deb ataganlar.

Jumladan, fransuz tilshunos olimi Moris Ra (Maurice Rat) o'zining frazeologik lug'utida FBlarni “expression”, “façon de parler” [10] deb ataydi.

Yana bir fransuz olimi Maruzo FBni “locution” [7], ya'ni “bir necha so'zni o'z ichiga oluvchi leksik birliklar” [ta'kid mualliflarniki] kabi nomlaydi.

Fransuz tilshunos olimi Per Giro frazeologiyaning manbai – bu FBlar, deya ta'kidlaydi. “Expression constituée par l'union de plusieurs mots formant une unité syntaxique et lexicologique” [8], ya'ni, FBlar ko'p so'zlarni bir sintaktik va leksikologik guruhga birlashtiradi, deya ularning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatadi:

- a) unité de forme et de sens – so'zlarning shakl va ma'no birligi;
- b) écart de la norme grammaticale ou lexicale – so'zlarning leksik va grammatik me'yorlardan chetga chiqishi;
- c) valeurs métaphoriques particulières – so'zlarning o'ziga xos metaforik ma'nolarga ega bo'lishi bilan farqlanishi.

Ammo Giro FBlarga to'laroq ta'rif berganiga qaramay, ularning xususiyatlarini har tomonlama ochib bera olmadi.

Shveysariyalik olim Sh.Balli FBlarning xususiyatlarini chuqur o'rganib,

frazeologizmlarning asosiy belgisi ular o‘rnini o‘sha iboraning ma’nosiga to‘g‘ri keladigan so‘z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligida, deb biladi. U hamma so‘z birliklarini ularning o‘zaro birikishiga ko‘ra ikki katta guruhga, ya’ni erkin so‘z guruhlari va turg‘un (almashtirib bo‘lmaydigan) so‘z guruhlariga ajratadi.

Bu borada rus va o‘zbek olimlari ham ko‘plam izlanishlar olib borib, o‘ziga xos tajriba maktabini yarata oldilar.

Rus tilshunoslaridan V.V.Vinogradov, B.A.Larin, S.I.Ojegov, N.N.Amosova, Yu.Yu.Avaliani, A.M.Babkin, V.P.Jukov, A.V.Kunin, A.G.Nazaryan, L.I.Royzenzon, N.M.Shanskiy, Yu.I.Resker, V.G.Gak va A.T.Alimovlar frazeologiyani juda ko‘p nazariy masalalarini ishlab chiqdilar [3].

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, frazeologizmlarni tadqiq qilish va ularni xorijiy tillardagi FBlar bilan qiyosan o‘rganish o‘zbek tilshunosligida uzoq ildizlarga borib taqaladi. Xususan, Yu.Pulatovning “Зарубежная литература в Узбекистане и переводы новелл Ги де Мопассана” (Автореф.дисс.кан.филол.наук –С.,1963), A.Narziqulovning “Французская фразеология и вопросы французо-узбекского художественного перевода” (Автореф.дисс...кан.филол.наук – Л.,1969) va “К вопросу художественного перевода с французского на узбекский язык” (Т., Fan, 1974) nomli ilmiy ishlari fransuz, rus va o‘zbek tillaridagi iboralarni qiyosan tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi [2].

Natijalar va muhokamalar

Fransuz adabiyotida betakror ijodi bilan munosib o‘ringa ega adib Gi de Mopassanning “Bel Ami” (“Azizim”) romani nafaqat o‘tkir syujeti, balki personajlarning hayotiyliigi, badiiy tasvir vositalarining go‘zalligi, xususan iboralardan o‘rinli foydalanilganligi bois jahon adabiyotining nodir durdonalari sirasidan joy olgan.

Tilshunoslikda asar matni – kontekst xususiyati tarjimon uchun tayanch nuqta hisoblanib, tarjimonning qaysi usul yoki vositadan foydalangani ham shunda aniqlanadi, demak tarjimoni tadqiq etish va baholashda bu asosiy me’zon bo‘la oladi [6]. Mazkur me’zonga tayangan holda tadqiqot davomida Gi de Mopassanning “Bel Ami” (“Azizim”) asari kontekstidan olingan ranglar vositasida yasalgan bir necha FBlar va ularning tarjimada berilishi yuzasidan qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Quyida ana shu tahlildan namunalar havola etiladi:

1. Asliyatda: ...**et ses lèvres peintes, rouges comme une plaie**, lui donnaient quelque chose de bestial, d’ardent, d’outré, mais qui allumait le desir cependant [9,21].

O‘zbek tilida: ...**qon silqib turgan jarohat kabi yoqut lablari** men yondiraman, kuydiraman, ado qilaman, deganday bo‘lib shahvat alangasini purkab, jozibasi bilan o‘ziga rom qilib turardi [4,230].

Yuqoridagi iboralar o‘zigi xos obrazlilik kasb etib, o‘xshatish asosida yasalgan va ses lèvres peintes, rouges comme une plaie (leksik tarjimada *bo‘yalgan, jarohat kabi qizil lablari*) birikmasi o‘zbek tilida yagona obraz vositasida *qon silqib*

turgan jarohat kabi yoqut lablari shaklida aks ettiriladi. Bu bilan ibora metaforik frazeologizm hosil qilganligini ko‘rish mumkin.

Ta’kidlash joizki, sinonimik boylik jamiyat taraqqiyotining har bir jabhasidagi madaniyat taraqqiyotini, uning etnik va estetik qimmatini, ma’naviy ehtiyojini, badiiy janrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. “Azizim” romanidan olingan quyidagi misollarda ham sinonimiyaning yorqin namunasini ko‘ramiz:

2. Asliyatda: **Il rougit jusqu’aux oreilles**, ne sachant plus que dire [9,25].

O‘zbek tilida: Dyurua nima deb javob berishini bilmay **qizarindi** [4,235].

3. Asliyatda: **Il avait rougi jusqu’aux cheveux** [9,77].

O‘zbek tilida: Dyuruaning **lavlagisi chiqib ketdi** [4,301].

2 va 3-misollarga asoslanib, bir FBning turli xil shakllarga egaligi bir qancha yangi iboralar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi iboralarni FBning variantlari deb emas, balki aslida bir xil obraz yotadigan va bir xil semantik ma’noli sinonim frazeologizmlar deb atash mumkin [5,87]. Mazkur o‘rindagi barcha iboralar rangga oid so‘zlar bilan hosil qilingan va aytish joiz, faqatgina fransuz tilidagi FBlar inson tana a’zolari (quloq, soch) bilan ifodalangan. O‘zbek tilidagi 1-ibora “qizarinmoq” fe’li bilan yasalgan bo‘lib, bizningcha, ushbu o‘rinda “qulog‘igacha qizarib ketmoq” FBi qo‘llansa, gapdagi uslubiy bo‘yoqdorlik yanada ortgan bo‘lar edi.

6-misoldagi iboraning benihoya kuchli obrazlilikka asoslangan hamda *qizarmoq* fe’li o‘rnida metaforik ibora – *lavlagisi chiqib ketoqdan* foydalanilganligi o‘zbek tarjimonining yuksak mahoratidan dalolat beradi.

4. Asliyatda: M. Perthuis, **un gros homme rouge comme une crête de coq**, demeura suffoqué par la surprise [9,48].

O‘zbek tilida: **Xo‘ppasemiz, xo‘rozning tojisiday qip-qizil janob** Pertyui kamoli hayratga tushib, tomog‘ini qirib yo‘talib qo‘ydi [4,266].

Ushbu misolda tarjima asliyatga yaqin bo‘lib, rangga oid so‘z asosida hosil bo‘lgan iboralar metaforik yo‘l bilan yasalgan hamda umumiy obrazlilik kasb etadi.

5. Asliyatda: Je ne fréquente pas **les dos verts** [9,83].

O‘zbek tilida: **Hezalaklarga** tobim yo‘q [4,312].

Yuqoridagi misollar tahlili faqat asliyatdagi ibora rang vositasida hosil bo‘lganligi va so‘z birikmasi shaklida ifodalanganligini, o‘girma esa, yagona so‘zga ekvivalent bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- ✓ Frazeologik birliklarning tarkibida nechta so‘z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma’noga birlashadi va emotsional-ekspressiv ma’noni ifodalaydi.
- ✓ Agar erkin so‘z birikmalari nutq davomida yaratilsa, turg‘un so‘z birikmalari, ya’ni iboralar nutq davomida yaratilmay, tayyor holda qo‘llaniladi.

- ✓ Ular baʼzan soʻzga, soʻz birikmasiga va baʼzan butun bir gapga teng maʼnoni anglatishi yoki shu birliklar bilan ifodalanishi mumkin.
- ✓ Frazologizmlar qurilishida être, avoir, faire, mettre, prendre kabi feʼllar hamda à, en, de predloglari muhim oʻrin egallaydi.
- ✓ Frazologizmlardan anglashilayotgan maʼnolar aniq vaziyatlarni tasvirlash asosida shakllanadi.
- ✓ Har bir tilga xos iboralar oʻsha xalq mentaliteti va til meʼyorlaridan kelib chiqib, shu xalqning fikr tarzini aks ettiradi.
- ✓ FBlar tarjimasida baʼzan fransuz tilidagi FBlar obrazlilik jihatidan bir-biriga yaqin boʻlsa, baʼzan fransuz va oʻzbek tilidagi iboralar variantlashgan, baʼzi holatlarda esa umuman boshqa-boshqa obrazlar vositasida aks ettirilgan.
- ✓ Frazologizmlarni individual (oʻziga xos) oʻxshatish tilda faqat yozuvchining oʻzigagina tegishli boʻlgan, FB larga qarama-qarshi nafaol iboralarni hosil qiluvchi qiyoslash usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badalov F.A. Frazologik birliklarning semantik xususiyatlarini oʻrganishdagi baʼzi-bir mulohazalar. Xalqaro simpozium materiallari. – Termiz. 2004. – B. 44.
2. Bobokalonov, O., & Akhrorova, R. (2023). Shifonemas in phraseological units related to the period of youth. Scientific journal of the Fergana State University, (6-TOM), 44-44.
3. Guiraud P. Les locutions françaises. – Paris, 1961. – P. 5.
4. Gulchehra Hojjeva, & Orzigul Ravshanova. (2023). EXPRESSION OF THE TERM "MUSIC" IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES BASED ON "FRAME" ANALYSIS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 12(05), 123–127.
5. Hojjiyeva G.S. Ranglar vositasida hosil boʻlgan fransuz frazeologik birliklarining tarjimada aks ettirilishi. Mag.akam.dar.ol.un yoz.diss. – Toshkent, 2012. – B. 18.
6. Hojjiyeva, Gulchehra. "SANʼATGA DOIR TERMINLAR VOSITASIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI (OʻZBEK VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 35.35 (2023).
7. Mamatov A.E. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil.f.dok.dis.: 10.02.02. Oʻzb.FA Tilshunoslik instituti, – Toshkent, 1991. 264-b.
8. Maupassant Guy de. Bel-Ami. – Москва, ВИЛ, 1981.
9. Maurice Rat. Dictionnaire des locutions françaises. – Paris, 1957. – P. 6.
10. Mopassan Gi de. Hayot. Azizim. Novellalar. I.Gʻafurov tarj., Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, – Toshkent, 1987.
11. Oʻrmonova N.M. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi. Filol.f.nom.diss. – Toshkent, 2008. – B. 41.
12. Ostonovich, Bobokalonov Odilshoh, and Hojjiyeva Gulchehra Salimovna. "FRENCH SHIFONEMAS IN THE ARTISTIC FIELDS."
13. Suvonova N.N. Frazologiyaning sistem-sath birligi sifatidagi talqini (fransuz tili materialida) fil.f.nom...diss. 2008, 87.b.
14. Марузо Ж. Словар лингвистических терминов. – Москва, Просвещение, 1960, – С. 180.